

MUNZIM IJODIDA ERKSEVARLIK G'oyalari

Beshimov Maqsud Komilovich

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15670327>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro jadidlarining yetakchilaridan biri Mirzo Abdulvohid Burxonov – Munzimning ijodiy merosida, jumladan “Ey mazlum Sharq!”, “Toba kay?” (“Qachongacha?”) she’rlarida ozodlik, erkparvarlik g’oyalaring aks etishi, bu g’oyalarning millat, xalq taraqqiyotidagi o’rni xususida fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: “Ey mazlum Sharq!”, “Toba kay?” (“Qachongacha?”), Munzim, Buxoroamirligi, Ayniy, Buxoro, ilm, maorif va madaniyat,,ilm-fan vaadabiyot, Vatan, «Inqilob alangasi», «Qutulish»gazetaları.

ИДЕИ СВОБОДЫ В ТВОРЧЕСТВЕ МУНЗИМА

Аннотация. В статье излагаются размышления об отражении идей свободы и патриотизма в творческом наследии одного из лидеров бухарских джадидов Мирзо Абдулвахида Бурханова - Мунзима, в том числе в поэмах «О угнетенный Восток!», «Доколе?» («Как долго?»), и месте этих идей в развитии нации и народа.

Ключевые слова: «О угнетенный Восток!», «Доколе?» («Как долго?»), Мунзим, Бухарский эмират, Айний, Бухара, наука, образование и культура, наука и литература, Ватан, газеты «Инкилоб алангаси», «Кутулиши».

IDEAS OF FREEDOM IN MUNZIM'S WORKS

Abstract. This article presents thoughts on the reflection of the ideas of freedom and patriotism in the creative heritage of one of the leaders of the Bukhara Jadids, Mirzo Abdulvahid Burkhanov - Munzim, including the poems "O oppressed East!", "How long?" ("How long?"), and the place of these ideas in the development of the nation and people.

Keywords: "O oppressed East!", "How long?" ("How long?"), Munzim, Bukhara Emirate, Ainiy, Bukhara, science, education and culture, science and literature, Vatan, "Inqilob alangasi", "Kutulish" newspapers.

Kirish. XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro hududi murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlar og‘ushida edi. Bu davrda mustamlakachilik va mahalliy despotizmga qarshi shakllangan uyg‘onish harakatlari, jumladan “Yosh buxoroliklar” harakati, adabiyotda ham o‘z aksini topdi. Munzim (Mirzo Abdulvohid Munzim) ana shu ijtimoiy-siyosiy muhitda shakllangan, o‘z ijodi orqali xalqni ozodlik, tenglik va erksevarlik ruhida tarbiyalashga harakat qilgan ijodkordir.

Natija va muhokama. Munzimning bir vaqtning o‘zida “Inqilob alangasi” va “Qutulish” gazetalarida chop etilgan “Bayoni hol”, “Ey Vatan”, shuningdek, “Ey mazlum, Sharq!”, “To ba kay?” (“Qachongacha?”) kabi asarlari Buxoroamirligi xalqining amirlikka qarshi qarashlarini targ‘ib qilish, milliy uyg‘onish, ozodlik tuyg‘ularini tarbiyalashda muhim rol o‘ynadi.

Munzim “Ey mazlum Sharq!” sarlavhasi bilan yozgan she’rini «Inqilob alangasi» gazetasining 1919 yil, 20-sonida bosib chiqaradi. Mazkur asar Sharq xalqlariga, jumladan, Buxoroamirligi aholisiga murojaat shaklida «yosh buxoroliklar» nomidan tojik tilida yozilgan.

Ma’lumki, bu paytda Munzim “yosh buxoroliklar” harakati Markaziy Qo’mita raisi sifatida faoliyat yuritar edi.

“Ey mazlum Sharq!” she’ri mazmunidan shuni tushunish mumkinki, unda qo’mitaning jamoaviy fikri bildirilgan. Bu fikrning to‘g’riliqi “MirzoAbdulvohidi Munzim” tomonidan yozilgan vaayni Munzim tomonidan “Ishtirokiyun” gazetasida “Sharq xalqlariga murojaat” sarlavhasi bilan yozilgan matngaasoslanganligidan ko’rishimiz mungkin.

Munzim imzosi bilan e’lon qilingan “Ey mazlum Sharq!” petitsiyasida eski qo’shinni inqilobiy harakatga jalb etish, Sharq va G’arbning taraqqiyatining demokratik va erksevar kuchlari o’rtasidagi bog‘liqlik masalalariga alohida e’tibor berildi. Bu murojaatnomada Munzim va uning tengdoshlarining ijtimoiy va estetik tafakkuridan mustahkam o’rin olgan Sharq va G’arb mehnatkash xalqlarining ozodlik, do’stlik, tenglik va birodarlik g‘oyalarini targ‘ib etadi.

Munzim mazkur asarida sharq xalqlarining imperialistik davlatlarining buzuq g‘oyalarini va birodarlik urushidan aziyat chekayotganligini ta’kidlaydi.

Munzim imperialistik mamlakatlarning harbiy kuchlari orasida “birodarlik urushi”ning dushmanlari kuchayib borayotganini va ularning aksariyati arablar, muslimonlar, turklar, ruslar, turkistonliklar va boshqa xalq va millatlarning birodarlik harakatlariga qarshi turishini qayd etadi. Munzim bu maqolani “Yosh buxoroliklar” jamoasi nomidan yozgan.

“Ey, mazlum Sharq!” she’rida g‘oyalar boy badiiy san’atlar orqali ifodalangan bo‘lib, ular orqali zulmat kechasingin nihoyasi, saodat tongi, mazlum xalqning najot topishi o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Munzimning inqilobdan keyingi davr jamiyatni voqeligiga bag‘ishlangan, zolimlarga nafrat nuqtai nazaridan yondashilgan asarlaridan yana biri “To ba kay?” (“Qachongacha?”) she’ri bo‘lib, «Qutulish» gazetasining 1920-yil 2-iyuldaggi 2-sonida nashr etilgan.

“To ba kay?” (“Qachongacha?”) she’rining asosiy mavzusi butun insoniyat tarixida zolimlarning hamisha mazlumlarga zulm qilishiga e’tibor qaratiladi va keyingi misralardao’sha zolimlarning asl qiyofalarini ochib berib ularga qarshi kurashga chorlaydi.

So‘roq usuli bilan yaratilgan bu g‘azalda o’sha davr hukmdorlarining xatti-harakatlari, ularning rohati uchun dehqonlar va mardikorlarning kecha-yu kunduz mehnat qilib, azob chekishi “Qachongacha?” so‘roq iborasi atrofida markazlashtirilgan.

Munzim “qachongacha?” so‘roq undovi bilan Ayniy, Hamdiy va boshqa maslakdoshlar kabi murojaatlarda Buxoroamirligi xalqini amir hokimiyatini ag‘darishga chaqiradi:

Ey Buxoroning oljanob avlodlari!

Qachongacha chang bilan bir xil bo’lasiz?

Zolimning zulmini olib tashlashing kerak,

Qamoq burchagida bu umrlar qancha davom etadi?

G‘azalning so‘nggi qismida Munzimning zolimlarni ag‘darish haqidagi murojaati va da’vati o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqdi.

Munzimning “Qachongacha?”, “Ey, mazlum Sharq” kabi she’rlari Ayniyning “Marsiya” va “Ozodlik qo’shig‘i”, Hamdiyning “Buxoroliklarga murojaat”she’rlari bilan o‘z davrining mavzui, badiiy jarayoni hamda xalqning ijtimoiy talablari bilan hamohangdir. Munzim o‘z she’rlari orqali jamiyatning har bir shaxsida erksevarlik, istiqlol va milliy g‘urur tuyg‘usini yuksaltirishni ko’zlaydi.

Xulosa. Munzimning “Ey mazlum Sharq!” va “To ba kay?” kabi asarlari uning faqat shoir emas, balki faol ijtimoiy-siyosiy arbob sifatida shakllanganligini ko’rsatadi. Bu she’rlar orqali u Buxoro amirligining zolim tuzumiga qarshi xalqni uyg‘otishga, milliy o‘zlikni anglatuvchi va erksevarlik ruhidagi kurashga da’vat etadi.

Shoirning asarlarida Sharq va G‘arb mehnatkash xalqlarining birdamlilik, do‘slik, tenglik g‘oyalari bilan bir qatorda, mustamlakachilikka, despotizmga va zo‘ravonlikka qarshi norozilik kayfiyati badiiy vositalar orqali yorqin ifoda topgan. Munzim bu orqali xalq ongida inqilobiy fikrni shakllantirishda, milliy uyg‘onishning adabiy asoslarini yaratishda muhim rol o‘ynagan.

Shunday qilib, Munzim ijodi XX asr boshidagi o‘zbek adabiyotida erksevarlik g‘oyalarining shakllanishi va targ‘ib qilinishi jarayonida muhim tarixiy va badiiy manba sifatida o‘rganilishi zarur bo‘lgan adabiy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sohib Tabarov. Mirzo Abdulvohidi Munzim. –Dushanbe. 2008. –S.118-121
2. Табаров С. Мунзим. – Душанбе: Ирфон, 1991. – Сах. 41
3. Beshimov, M. (2022). Abdulvahid Munzim – enlightened poet, state and public figure. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(6), 52-56.
4. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 32;
5. Айний С. Намунаиадабиётитоҷик. –Москва: 1926
6. Мунзим. Маджмуаи осор. –Душанбе: Ирфон, 1967.